

## Psixologik trening o'tkazildi

Inson ruhiyati ko'p narsaga qobil va qodir. Uning harakatini boshqarish mezonini ham ruhiyatshunoslik ilmi bilan vobasta. Ruhiyat tananing qo'mondoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgust kunidagi **“O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”**gi PQ-3898-sonli Qaroriga asosan harbiy bo'linmalarda psixologik ishlarni olib borish maqsadida 2019 yil 25 yanvar kuni Sirdaryo viloyati “Yangiyer” tumanida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli 9254-U sonli harbiy qismda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Gidromelioratsiya” fakulteti “Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi” kafedrasida mutaxassis psixologlari Sh.Raupova va D.Madazizova, hamda “E va SRB” kafedrasida o'qituvchisi M.Abduqodirovalar ishtirokida muddatli xarbiy xizmatchilar bilan **“Jamoani jiplashtirish”** bo'yicha psixologik trening o'tkazildi. Trening boshida katta o'qituvchi Sh.Raupova tomonidan harbiy xizmatchilarga “Muomala va muloqot”, “Shaxsning individual psixologik xususiyatlari” mavzularida ma'ruza o'qildi. Ma'ruza davomida harbiylar tomonidan juda ko'p savollar berildi va ushbu savollarga ular aniq va ta'sirchan javobni oldilar. Ma'ruza qiziqarli tugatilgach, katta o'qituvchi D.Madazizova tomonidan psixologik trening va o'yin o'tkazildi. Tashkil etilgan psixologik trening yuqori saviyada, ko'tarinki ruhda, savol - javoblarga boy va sarmazmun o'tdi.



**“Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi” kafedrasida ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'uli Sh.Raupova axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**